

## ALISHER NAVOIYNING MANOQIB ASARLARIDA SINONIMLARNING IFODALANISHI

Xo‘janiyazova Shahnoza Satimboyevna

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti  
tayanch doktoranti

shahnozaxon8686@gmail.ru

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada Alisher Navoiyning manoqib asarlarida qo‘llangan ma’nodosh so‘zlar qadimgi turkiy til, eski o‘zbek adabiy til va hozirgi adabiy tilidagi semantik qurilishi hamda etimologik kelib chiqishi tahlilga qilingan. Sinonimik qatordagi har bir leksik birlik o‘zining ma’no noziklari bilan aks etgan.*

**Kalit so‘zlar.** *Uns, ášnáliy musáhib, álam, gardun, rūy, diydár, yár, abyát, at, maláhati.*

### ABSTRACT

*This article analyzes the semantic structure and etymological origin of the words used in Alisher Navoi’s manokib works in the ancient Turkic language, the old Uzbek literary language and the modern literary language. Each lexical unit in a synonymous series has its own subtleties of meaning.*

**Keywords:** *Uns, ášnáliy musáhib, álam, gardun, rūy, diydár, yár, abyát, at, maláhati.*

### KIRISH

Alisher Navoiyning manoqiblari yani, “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Sayyid Hasan Ardascher” va “Holoti Pahlavon Muhammad” asarlarining leksik tarkibi rang-barang bo‘lib, unda ma’nodoshlik so‘zlarniñq rang-barang qo‘llanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Adib ustozlari hamda zamondoshlari Abdurahmon Jomiy, Pahlavon Muhammad, Sayyid Hasan Ardascherlarning suvrati va siyratini o‘quvchiga to‘laqonli etkazib berish mohirona iste’foda etgan. Oqibatda nafaqat Navoiyning so‘z qo‘llash mahorati, balki eski o‘zbek adabiy tili so‘z boyligining naqadar ko‘p qirraligini kitobxonga to‘laligicha tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Alisher Navoiyning ijodini adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganish qanchalik zarur va ahamiyatli bo‘lsa, uning o‘zbek adabiy tilini yaratish sohasidagi buyuk xizmati va faoliyatini tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganib chiqish ham shunchalik zarur va ahamiyatlidir<sup>1</sup>. Ma’lumki, ma’nodosh so‘zlar ikki va undan ortiq

<sup>1</sup> Дониёров Х. Алишер Навоий ва ўзбек адабий тили. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. – Б. 3.

til birligining o‘zaro munosabati asosida yuzaga keladi. Alisher Navoiy asarlari leksikasini semantik jihatdan o‘rganish, shu davrdagi adabiy tilning boyligi, badiiy ijoddagi imkoniyatlarini belgilashda yordamlashadi. Bunda omonimiya, antonimiya, sinonimiya va polisemiya hodisalari nazarda tutiladi. Shoir ijodida nihoyatda ko‘p sinonim, antonim va omonimlar uchraydiki, bular ijodkor mahsulining badiyilagini oshirishda vosita bo‘ladi<sup>2</sup>.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Turkologiya va o‘zbek tilshunosligida keyingi yillarda sinonimlarga bag‘ishlangan bir qancha ishlar amalga oshirildi, o‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati chop qilindi. Chunonchi, N.Abdurahmonovning “Qadimgi turkiy til”, A.Hojievning “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”, “Sh.Iskandarovaning “Leksikani mazmuniy maydon asosida o‘rganish muammolari, G’.Abdurahmonov A.Rustamovning “Alisher Navoiy tilining grammatic xususiyatlari” kabi ilmiy adabiyotlar hamda G. K. Zakirovaning “Синонимы в языке тюрко-татарских письменных памятников периода Золотой Орды”, D. Sh.Abukarovaning “Синонимия азербайджанского, лезгинского и английского языков” M.S.Sergalievning “Синонимия синтаксических конструкций в современном казахском литературном языке” va h.k. ilmiy tadqiqot ishlari asos qilindi.

## MUHOKAMA

Alisher Navoiy manoqib asarlarida, ya’ni, “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Sayyid Hasan Ardascher” va “Holoti Pahlavon Muhammad”da sinonim so‘zlardan mohirona foydalangan. Ushbu asarlardagi sinonimlarning ma’noviy xususiyatlarini tahlil qilamiz.

**Sinonimiya.** Ma’lum tildagi sinonimlarni o‘rganish, o‘sha millat tilining lug‘at tarkibi qanchalik boy ekanligini ko‘rsatishga xizmat qildi<sup>3</sup>. Asarlarida ona tili so‘z boyligidan mohirona foydalangan Alisher Navoiy o‘zbek tilining arab va fors-tojik tillaridan also kam emasligi, ba’zi jihatlar bo‘yicha boy ekanligini ham ta’kidlaydi. Adib asarlarida o‘zbek tilida mavjud sinonimlardan unumli foydalandi<sup>4</sup>. Har bir leksik ma’noning o‘ziga xos xususiyatlari sifatida uslubiy semasi bilan farq qila olishi, sinonimik, antonimik munosabatga kirisha olishini, yangi leksema har bir leksik

<sup>2</sup> Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 157.

<sup>3</sup> Рахматуллаева М. Алишер Навоий лирикасида синонимлар масаласи (XV асрда Султон Али Машхадий томонидан кўчирилган “Наводирун-ниҳоя” девонининг уникал кўлёзмаси асосида). Филол.фан.док.дисс. ... – Тошкент, 1965. – Б. 3.

<sup>4</sup> Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 122.

ma'nodan yasalishini ham ta'kidlash lozim<sup>5</sup>. Sinonimlar shaklan boshqa bo'lsa-da, ma'no jihatdan ayni bir tushuncha yoki tasavvurni ifodalab, birlashtiruvchi bir ma'noni bildiradi<sup>6</sup>.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida emotsional bo'yoq dorlikka ega *bašara* leksemasi "kishi boshining old qismi; bet, yuz, chehra" (O'TIL, I, 183) ma'nosini anglatadi va *yüz, rüy, diydár, aft* so'zлari bilan sinonimik qatorni yuzaga chiqaradi. Ushbu arabcha so'z *başar (un)* shakliga ega (ARS, 72); o'zbek tilida so'z oxiridagi *t* tovushini tashlab qabul qilingan: *başarat*→*bashara*. Bu so'z asli "po'stini(terisini) shildi" ma'nosini anglatuvchi *başara* fe'lidan (ARS, 143) yasalgan bo'lib, "teri, po'st" ma'nosini bildiradi; o'zbek tilida bu o'zlashma "kishining yuz ko'rinishi, qiyofa" ma'nosini anglatadi (O'TIL, I, 87; O'TEL, II, 69-70). *Bašara* so'zining XMda hozirgi o'zbek adabiy tilidagidek salbiy ma'noni ifodalagani shubhali. Zero, Abdurahmon Jomiy uni Alisher Navoiyga nisbatan qo'llagan. Bu holat o'zlashmaning XV-XVI asrlarda neytral ma'no kasb etganidan dalolat beradi: *Maxdum taşrif keltürdilär, faqır munbasit* (60a2) *bolub, istiqbál qilib, alar taskin tapiib*, (60a3) *dedilärkim*: "**Başarayda** inbisáte záhir bolur, (XM, 60a4) ne hálıñ bar?". "Xamsat ul-mutahhayirin"da *başara-yüz-diydár* hamda *rū/rüy* so'zлari bilan birga sinonimik qatorni voqelantirgan: (39b9) *Ul vaqtækim, şahzáda-i bihamta Kičik mirzá* (39b10) *taba saráhu zalli muzilli xatákáš, devána-i siyah* (XM, 39b11) *rüy siyahpoşqa yoluqmaydur erdi; Alarnıñ ...yüzlärin qibla sari qıldilar. Alarnıñ vidá diydárlarıya mušarrraf* (XM, 70b10) *bolub, Qur'án oquyalı başladı*.

*Kök* leksemasi "yer ustida gumbaz shaklida ko'rinish turadigan havo qatlami, tiniq osmon rangidagi, moviy, zangori bo'lib ko'rinvchi jism" ma'nosini ifodalaydi (O'TIL, II, 449-450). *Kök* kosmonimi *aflak-gardun-falak* leksemalari bilan sinonimik qatorni yuzaga keltirgan va eski o'zbek adabiy tilida 6 ma'noda qo'llangan (ANATIL, II, 149). Manoqiblar matnida faqat "osmon, falak" ma'nosida aks etgan: *Kökkä mätamzadalar navhasī här yavuštı̄* (XM, 72a13) hamda *aflák-gardun-falak* astropomimlari bilan sinonimik qatorni voqelantiradi: *Āgär aflák havádisī va rúzgár* (34b9) *naváibidin meniñ barča nazmim* (34b10) *zamána sahifasidin mahv bolsa va bu* (XM, 34b11) *qasidam qalsa menjä basdur...*

(62a2) *Qasr-i kalámi čiqlib andaq baland*  
(XM, 62a2) *Kim, aña gardun sala almay kamand;*

<sup>5</sup> Турсунов У., Мухторов А., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 100-101.

<sup>6</sup> Пинхасов Я. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология ва Фразеология. – Тошкент: Ўқитувчи, 1969. – Б. 22.

*Falak* sayri (49a9) *iztirábüdín* va *zamán havádisi inqilábüdín* (XM, 49a10) bu avraq ham nábus bolyay.

“Butun mavjudot, borliq, koinot, dunyo” ma’nosini (O‘TIL, III, 105) ifodalovchi álam leksemasi *dunyá-jahán* o‘zlashmalari bilan sinonimik uyani yuzaga keltirgan: *Hazrat-i maxdum álam afázilinij hakami, balki hákimidür*, (XM, 16b13) *alarni musallam tutmas kiši yoqtur; Ol* (3b4) *umur záhir-u bátinimya mujib-i mubáhát* va (3b5) *quvanmaq* va *dunyá-yu áxiratimya báis-i iftixár* va öküünmaqdur (XM, 3b6);

(65a2) *Jahánníkim qila alyay tavahhum,*  
(XM, 65a3) *Ki, bolyay nuqta-i mavhum ara gum.*

Yár leksemasi “dilga yaqin kishi; hamdam, do’st, muhib; yordamchi” (O‘TIL, II, 43) ma’nosini bildiradi. Ushbu leksema HPM matnida yárán hamda *musáhib* leksemalari bilan sinonimiyanı voqelantirgan: *Andin maxsusraq* va *muláyimraq yári* va *musáhibi* yoq erdi (11b1); *Ba’zi yáránlarýya* bu rubáiyin bitib yubarib erdi (5a6).

XMda *ulfat* o‘zlashmasi *uns-muhib-ášná-musáhib* leksemalari bilan sinonimlik qatorni yzaga chiqqan: *Yana* “*Nafahát ul-uns*” durkim, *ášnálíj nasáimí* (69a22) *uns ravzasidin jáñ mašámíja keltürür* va *ulfat* *šamáil-i quds gulšanidin ruh dimáyíja yetkiürür;* *Va ägär ul nav’ iltifátlarni mahbubdín muhibýa* (3b7) *xaláyiq bávar qilmasalar-ol hazratníj musannafátida mazkurdür;* *Xája Dehdár* bu faqiryá **musáhib boldi**, *ul* (70b4) *tušníj izhár qıldib.*

*At’ima* arabcha so‘z bo‘lib, “ovqatlar, emishlar” ma’nosini bildiradi (NTL, I, 121). *Pahlavánníj tak’yasidä xáh safarda, xáh* (8b8) *hazarda tabx ištiyálidín faráyat yoq erdi, türlük-türlük at’ima* (HPM, 8b9) erdi. *At’ima* yizá leksemasi bilan sinonimlik uyasını voqealantirgan.

“Osh tuzi” ma’nosidagi tub turk (o‘zbek)cha *tuz* so‘zi ayni semada dastlab Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” va Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” da qayd etilgan (DTS, 594). Alisher Navoiy ham ushbu leksemani “Xazoyin ul-maoniy” da “osh tuzi” ma’nosida iashlatgan:

*Zaxmín ačitqan dam-badam ol la ’l-i šakarxand erür,*

*Vah-vah tuz ermiš ulki men qıldım gumánkim, qand erür* (ANATIL, III, 252). HSHAda adib tahlil qilinayotgan leksemaga “shirinlik, yoqimlilik” ma’joziy ma’nosini ifodalash vazifasini yuklagan hamda arabcha *maláhat* o‘zlashmasi bilan ma’nodoshlik qatorini shakllantirgan: ...*dardmandána sözdin* va *nazmdín* va *naymadín mutaassir bolyaylar* va (6b1) *alarni ul hálları asháb* va *yáránlarýa asar qilyay* va *bu majlisni* (6b2) ***tuzi*** va ***maláhatidur***.

Diniy aqidalarga ko‘ra, inson uchun “hamma narsa muhayyo bo‘lgan, rohatbaxsh, xushmanzara joy” ma’nosini bildiruvchi arabcha *ravza* o‘zlashmasi forscha-tojikcha *firdavs* teonimi bilan quyidagi misolda sinonomik munosabatga kirishgan: *Čun* (3a1) *pákiza ruhlarini qudsiy ášyán táiri* (3a2) *badan qafasidin ravza-i firdavs gulšani sari* (XM, 3a3) *parváz tüzdi*. Ushbu jumlada adib *táir* (*táqir*) leksemasini majoziy “jon, ruh” ma’nosida qo‘llash qatori *qafas* va *gulšan* so‘zlarini zidlashtirib, so‘z qo‘llash mahoratini yana bir bor namoyish etgan.

Chaqaloq dunyoga kelishi bilan boshqalardan ajralib turish uchun har bir kishiga qo‘yiladigan *at* va *ism* leksemalari ma’nodoshlik xususiyatiga ega. Ushbu leksemalar eski o‘zbek adabiy tili hamda hozirgi o‘zbek adabiy tilida bir xil ma’no kasb etib, mutlaq sinonimdir: Shu bilan bir qatorda *laqab* leksemasi ham sinonimik qatorni hosil qilgan. Ushbu istiloh arabcha bo‘lib, *laqab* (un) shaliga ega (ARS, 726); “kishi ustidan kulish, tahqirlash maqsadida biror xususiyatini ko‘zda tutib ikkilamchi nom berdi” (O‘TIL, I, 429) ma’nosini anglatuvchi *laqaba* fe’lidan (ARS, 726) hosil qilingan (UAYa, 568). Ushbu leksema arab tilda “unvon, titul” (ARS, 726), eski o‘zbek adabiy tilida “*taxallus, familiya*” ma’nolarini bildirgan (O‘TIL, I, 429; O‘TEL, II, 210). Quyida keltirilgan manoqiblar matnida *laqab* “ism, nom” ma’nosida qo‘llangan: *Sen dáyi har birisini bir* (XM, 68a3) *ism bilä mumtáz qil va har qaysini bir laqab bilä jilvasáz etgil*; (XM, 68b1) *Faqir dáyi avvalyи deványakim, “Yaráib ussiyar” at qoydum*.

“Sharq she’riyatida aruz vaznida yozilgan g‘azal, qasida, masnaviy kabi asarlarning bir butun ikki misrasi, umuman, har qanday she’r, she’riy parcha” (O‘TIL, I, 144) ma’nosini ifodalash uchun *abyát-bayt-še’r* ma’nodoshlaridan foydalanilgan: (6b10) *Bu masnaviy niháyatín pádsháh duásü bilä xatm qilibdur va hál ahlí bu* (HPM, 6b11) *abyátdin ma’lum qilurlarkim; Va bu še’r yetti* (HPM, 12b7) *bayt erdi va musavvada qilib jaybímya salib erdim*.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida “nojo‘ya xatti-harakatlar uchun gap-so‘z, kaltak va shu kabi bilan jazo bermoq; ta’zirini bermoq” (O‘TIL, I, 38) ma’nolaridagi *adab* leksemasi eski o‘zbek adabiy tilida “jazoga loyiq kishilarning jazosini berishda shiddat ko‘rsatmoq, jazo, do‘q, po‘pisa qilmoq” (NAL, 556) sememasidagi siyásat istilohi bilan sinonimik qatorni hosil qilgan: *Sen heč* (19a1) *nimä demägilkim, anja adab yetgüsídür* (XM). *Ol öz siyásatín tapqusídür, sen* (XM, 70a15) *heč nimä demä*.

## NATIJALAR

Olib borilgan tahlil natijalariga ko‘ra, abib manoqib asarlarida sinonimik qatorlari 80 tadan ortiqligini ko‘rsatdi. Asarlar matnida asosan, sinonimik qatorlar

narsa-buyum nomini bildiruvchi so‘zlar, rang-tus anglatuvchi so‘zlar, ish-harakat bildiruvchi so‘z turkumlari doirasida vogelangan.

## XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiyning manoqib asarlari leksikasidagi ma’nodosh so‘zlarning ma’no qirralarini atroflicha ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Manoqiblar so‘z boyligidagi leksik-semantik jarayonlarning rang-barangligi nafaqat adibning so‘z qo’llash mahorati, balki eski o‘zbek adabiy tili leksikasining turfaligi, boyligidan dalolat beradi.

## Shartli qisqartmalar

1. **ANATIL** – Алишер Навоий асарлари тилининг изохли лугати, -Тошкент, I, II, III, 1983.
2. **Devon** – Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. I-II томлар. -Тошкент, 1960-1967.
3. **DTS** – Древнетюрский словарь. -Л, 1969.
4. **HSHA** – Alisher Navoiy. Holoti Pahlavon Muhammad. XX jildlik, X jild.- Toshkent, 2013.
5. **HPM** – Alisher Navoiy. Holoti Sayyid Hasan Ardasher. XX jildlik, X jild. - Toshkent, 2013.
6. **МК** – Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. II, III том.-Тошкент, 1961-63.
7. **PDP** – Малов С. Е. Памятники древнетюркской письменности. М.-Лгр.: 1951.
8. **XM** – Alisher Navoiy. Xamsat ul-mutahayyirin. XX jildlik, V jild. - Toshkent, 2013.
9. **O‘TIL** – Ўзбек тилининг изохли лугати. I-V том. - Тошкент, 2006.
10. **O‘TEL** – Ўзбек тилининг этимологик лугати. - Тошкент, I. 2000.
11. **ESTYA** – Севортян Е. В. Этимологический словарь туреско-татарских наречий. I-II том. СПб, 1969-1971.

## REFERENCES

1. Alisher Navoiy. Xamsat ul-mutahayyirin. XX jildlik, V jild. – Toshkent: 2013. – B. 742.
2. Alisher Navoiy. Holoti Pahlavon Muhammad. XX jildlik, X jild. – Toshkent: 2013. – B. 26.

- 
3. Alisher Navoiy. Holoti Sayyid Hasan Ardascher. XX jildlik, X jild. – Toshkent: 2013. – B.
  4. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 157.
  5. Дониёров Х. Алишер Навоий ва ўзбек адабий тили. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. – Б. 3.
  6. Пинхасов Я. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология ва Фразеология. – Тошкент: Ўқитувчи, 1969. – Б. 22.
  7. Раҳматуллаева М. Алишер Навоий лирикасида синонимлар масаласи (XV асрда Султон Али Машҳадий томонидан кўчирилган “Наводирун-ниҳоя” девонининг уникал қўлёзмаси асосида). Филол.фан.док.дисс. ... – Тошкент, 1965. – Б. 3.
  8. Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 122.
  9. Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 100-101.